

Abdasxon ota fermer xo'jaligida amaliy seminar o'tkazildi
"Yashil makon" umummilliyl loyihasi doirasida dala chetiga ko'chat ekish va
dala madaniyati bo'yicha ishlarni jadallashtirish yuzasidan o'tkaziladigan
uchrashuv grafigiga ko'ra Qo'shtepa tumanidagi "Aligavharov Langar" MMTP
hududidagi Abdasxon ota fermer xo'jaligida amaliy seminar bo'lib o'tdi.

**Unda viloyatdan biriktirilgan mas'ullar, tuman sektor rahbarlari hamda
tumanimizdagi qishloq va suv xo'jaligiga aloqador tashkilotlarning mas'ullari,
shuningdek barcha fermer xo'jaliklari rahbarlari hamda ko'chatchilik
pitomniklari egalari ishtirok etishdi.**

Seminar davomida "Yashil makon" umummilliyl loyihasi doirasida dala
chetlariga tut, tok, terak va mevali daraxt ko'chatlari ekilib, dala cheti va
uvotlarni xas-xashakdan tozalash, daraxtlarni oqlash bo'yicha kerakli
tavsiyalar berildi.









2024-11-28 19:50:09